O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI JIZZAX FILIALI

ISSN 2181-3884

ZAMONAVIY ILMIY-TEXNIK TADQIQOTLAR

xalqaro jurnali

Vol. 2 No. 3

2026

International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research

Volume 2 Issue 3
2026

Zamonaviy ilmiy-texnik tadqiqotlar xalqaro jurnali

3-son
2026

Международный журнал современных научно-технических исследований

Том 2 Выпуск 3
2026

MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI

Xalqaro ilmiy-elektron jurnali

Tahrir kengashi raisi:

P.f.d., prof., O.X. Turakulov

Bosh muharrir:

A.A. Abdumalikov

Tahrir kengashi mas’ul kotibi:

D.M. Jomurodov

Tahririyat hay’ati:

1. B.f.d., prof., S. Murodova (O’zMU Jizzax filiali, UZB)
2. P.f.n., prof., S. Usmanov (O’zMU Jizzax filiali, UZB)
3. T.f.n., dos., S. Tavboev (O’zMU Jizzax filiali, UZB)
4. F.f.d., prof., N. Djusupov (O’zDJTU, UZB)
5. T.f.d., dos., S. Ruzimov (TTPU, UZB)
6. P.f.d., prof., G. Lekerova (SKU, KZH)
7. DSc., Ali Coşkan (ASUI, TR)
8. T.f.d., prof., D. Irgasheva (TATU, UZB)
9. T.f.d., prof., I. Siddikov (NRU TIIAME, UZB)
10. T.f.n., dos., S. Eshkabilov (NDU, US)

Zamonaviy ilmiy-texnik tadqiqotlar xalqaro elektron jurnali (International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research) O’zMU Jizzax filiali Kengashining qaroriga asosan tashkil etilib, 2022-yil 9-sentabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №038200 raqami bilan ro‘yxatidan o‘tkazilgan, shuningdek davlatlararo standartlar talabi asosida O‘zbekiston Milliy kutubxonasidan jurnal uchun 2181-3884 ISSN raqami olingan.

© “O‘zMU Jizzax filiali” – 2023

Tahririyat manzili:

130100, Jizzax viloyati, Jizzax shahri,
Sh.Rashidov Shox ko‘chasi, 259-uy.

BOSHLANG'ICH SINF INGLIZ TILI DARSLIKLARIDA GENDER MADANIYATINI SINGDIRUVCHI TOPSHIRIQ VA FAOLIYATLARNING MAZMUNIY XUSUSIYATLARI

Egamberganova Maxbuba Jabbargan qizi

Urganch Innovatsion Universiteti, o'qituvchi.
e-mail: maxbubamegamberganova@gmail.com **ORCID**: https://orcid.org/0009-0002-8740-7462

Annotatsiya.

Mazkur maqolada boshlang'ich sinf ingliz tili darsliklarida gender madaniyatini shakllantirishga xizmat qiluvchi topshiriq va faoliyatlarning mazmuniy xususiyatlari tahlil qilinadi. Darsliklarda qiz va o'g'il bolalarning ijtimoiy rollari, qiziqishlari, faoliyat turlari hamda o'zaro munosabatlarini ifodalovchi o'quv materiallarining gender jihatlari yoritiladi. Shuningdek, topshiriqlarning gender tengligi, o'zaro hurmat va ijtimoiy hamkorlik tamoyillarini rivojlantirishdagi pedagogik imkoniyatlari aniqlanadi. Tadqiqotda darslik mazmunining gender stereotiplarini mustahkamlash yoki ularni kamaytirishdagi o'rni baholanadi. Boshlang'ich ta'lim bosqichida gender madaniyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan topshiriqlarni takomillashtirish bo'yicha ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, ingliz tili darsligi, gender madaniyati, gender tengligi, gender stereotipi, o'quv topshiriqlari, ta'lim faoliyati, ijtimoiy rollar, gender tarbiyasi, darslik mazmuni.

СОДЕРЖАТЕЛЬНЫЕ ОСОБЕННОСТИ ЗАДАНИЙ И ВИДОВ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ, НАПРАВЛЕННЫХ НА ФОРМИРОВАНИЕ ГЕНДЕРНОЙ КУЛЬТУРЫ В УЧЕБНИКАХ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА ДЛЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Эгамберганова Махбуба Джаббарган кизи

Ургенчский инновационный университет, преподаватель.

Аннотация.

В статье анализируются содержательные особенности заданий и видов деятельности в учебниках английского языка для начальных классов, направленных на формирование гендерной культуры. Рассматриваются гендерные аспекты учебных материалов, отражающих социальные роли, интересы, виды деятельности и взаимоотношения девочек и мальчиков. Кроме того, определяются педагогические возможности заданий в развитии принципов гендерного равенства, взаимного уважения и социального сотрудничества. В исследовании оценивается роль содержания учебников в закреплении или снижении гендерных стереотипов. Разрабатываются научно-методические рекомендации по совершенствованию заданий, направленных на развитие гендерной культуры на этапе начального образования.

Ключевые слова: начальное образование, учебник английского языка, гендерная культура, гендерное равенство, гендерный стереотип, учебные задания, образовательная деятельность, социальные роли, гендерное воспитание, содержание учебника.

CONTENT FEATURES OF TASKS AND ACTIVITIES AIMED AT FOSTERING GENDER CULTURE IN PRIMARY SCHOOL ENGLISH TEXTBOOKS

Egamberganova Maxbuba Jabbargan qizi

Urgench Innovation University, Lecturer.

Abstract.

This article analyzes the content features of tasks and activities in primary school English textbooks aimed at fostering gender culture. It examines the gender-related aspects of educational materials that represent the social roles, interests, activities, and

interactions of girls and boys. The pedagogical potential of these tasks for promoting gender equality, mutual respect, and social cooperation is also identified. The study evaluates the role of textbook content in reinforcing or reducing gender stereotypes. Scientific and methodological recommendations are proposed for improving tasks aimed at developing gender culture at the primary education level.

Keywords: primary education, English textbook, gender culture, gender equality, gender stereotype, learning tasks, educational activities, social roles, gender education, textbook content.

Kirish. Bugungi kunda ta'lim jarayoni nafaqat o'quvchilarga bilim berish, balki ularda ijtimoiy va madaniy qadriyatlarni shakllantirishning muhim vositasi sifatida qaralmoqda. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichida bolaning jamiyat, oila, tengdoshlar va o'zining ijtimoiy mavqeyi haqidagi dastlabki tasavvurlari shakllanadi.

Shu nuqtayi nazardan, maktab darsliklarining mazmuni o'quvchilarning dunyoqarashi va ijtimoiy munosabatlariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Ingliz tili darsliklari esa til o'rgatish bilan bir qatorda turli madaniy obrazlar, ijtimoiy rollar va kundalik faoliyatlarni ham namoyon etadi. Mazkur materiallarda qiz va o'g'il bolalarning qanday tasvirlanishi ularning gender haqidagi tasavvurlariga bevosita yoki bilvosita ta'sir qilishi mumkin. Ayrim hollarda darsliklarda an'anaviy gender rollarining takroriy ifodalanishi mavjud stereotiplarning mustahkamlanishiga olib keladi.

Biroq ta'lim mazmunini to'g'ri tashkil etish orqali o'quvchilarda tenglik, o'zaro hurmat va hamkorlik kabi qadriyatlarni rivojlantirish imkoniyati mavjud.

Shuning uchun boshlang'ich sinf ingliz tili darsliklaridagi topshiriq va faoliyatlarni gender nuqtayi nazaridan tahlil qilish dolzarb ilmiy-metodik masalalardan biridir.

Bunday tahlil darsliklarda gender stereotiplarining namoyon bo'lish shakllarini aniqlash va ularning pedagogik ta'sirini baholash imkonini beradi.

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi boshlang'ich sinf ingliz tili darsliklaridagi topshiriqlarning gender madaniyatini shakllantirishdagi imkoniyatlarini aniqlash va ularni takomillashtirishga doir ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA. Gender madaniyatini ta'lim jarayonida shakllantirish masalasi O'zbekistonda so'nggi yillarda pedagogik tadqiqotlarning muhim yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda. A. R. Saydullayeva bo'lajak pedagoglarda gender madaniyatini rivojlantirishning metodik asoslarini tadqiq etib, genderga oid bilim, munosabat va kompetensiyalarni shakllantirishning pedagogik imkoniyatlarini asoslagan [1]. G. P. Nazarova esa ingliz tili misolida gender yondashuvni sotsiolingvistik kompetensiya bilan bog'lab, gender stereotiplarini aniqlash, genderga xolis til birliklaridan foydalanish va maxsus topshiriqlar tizimini ishlab chiqish zarurligini ko'rsatgan [2]. B. Toshboeva boshlang'ich sinflarda ingliz tilini o'qitish texnologiyalarini tadqiq etib, darsliklardagi didaktik materiallar, rolli o'yinlar, muloqotga asoslangan va syujetli topshiriqlarning o'quvchi rivojidagi ahamiyatini asoslagan [3]. Shu bois mazkur tadqiqotda gender madaniyati aynan darslikdagi obrazlar, matnlar, rasmlar, savol-topshiriqlar, rolli o'yinlar va kommunikativ faoliyatlar orqali qanday singdirilishini aniqlashga e'tibor qaratiladi.

Tadqiqotda darsliklarni mazmuniy-kategoriyaviy tahlil qilish, qiyosiy tahlil, gender-kontent tahlili, kuzatish va pedagogik talqin metodlaridan foydalaniladi. Tahlil mezonlari sifatida qiz va o'g'il bolalarning tasvirlanish chastotasi, ijtimoiy rollari, kasb va faoliyatlari, qiziqishlari, muloqotdagi faolligi hamda topshiriqlarda gender stereotiplarining mavjudligi belgilanadi. Shuningdek, kommunikativ va rolli topshiriqlarning gender tenglik, o'zaro hurmat va hamkorlik qadriyatlarini shakllantirish imkoniyati baholanadi. Metodologik jihatdan bu yondashuv Nazarovaning genderga oid topshiriqlarni tahlil qilish va qiyoslashga asoslangan tadqiqot usullari bilan hamohangdir.

MUHOKAMA. Boshlang'ich sinf ingliz tili darslari uchun ishlab chiqilgan gender madaniyatini singdiruvchi topshiriq, matn va faoliyat turlari o'quvchilarning yosh, psixologik va kognitiv xususiyatlarini hisobga olgan holda loyihalashtirildi. Ushbu metodik materiallar 6–10 yoshli bolalarda ijtimoiy tasavvurlar, axloqiy me'yorlar va shaxsiy munosabatlar shakllanishining intensiv bosqichiga mos bo'lib, gender madaniyatini majburlovsiz, tabiiy va integrativ tarzda shakllantirishga yo'naltirilgan.

Boshlang'ich sinfda ingliz tilini o'qitish jarayoni nafaqat nutq ko'nikmalarini rivojlantirish, balki o'quvchilarda ijtimoiy qadriyatlarni, madaniy ongni va insoniy munosabatlarni shakllantirishga ham xizmat qiladi. F. B. Bayjonovning tadqiqotlarida ta'kidlanganidek, ta'lim jarayonida gender tengligi va gender madaniyatiga oid mazmunni o'quv adabiyotlari hamda ta'lim faoliyatiga integratsiyalash o'quvchilarda teng huquq va imkoniyatlar haqidagi tasavvurlarni shakllantirishning muhim pedagogik sharti hisoblanadi [4]. Shu nuqtayi nazardan, dars jarayonida qo'llaniladigan topshiriqlar, mashqlar va faoliyat turlari orqali gender madaniyatini singdirish ta'limning muhim tarkibiy qismiga aylanadi.

Topshiriqlar — bu o'quv jarayonining didaktik vositasi bo'lib, ular o'quvchini o'z fikrini ifodalash, muloqotga kirishish, tahlil qilish va baholashga undaydi. Agar topshiriqlar gender tenglik va adolat g'oyalarini o'z ichiga olsa, ular orqali o'quvchi o'zining va boshqalarning gender, madaniy va ijtimoiy xususiyatlariga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo'lishni o'rganadi.

Gender madaniyatini rivojlantirishda topshiriqning mazmuni, shakli va metodik yo‘nalishi muhim ahamiyat kasb etadi. Didaktik jihatdan to‘g‘ri tanlangan topshiriqlar o‘quvchini har ikki jins vakillariga xos faoliyatlarni ijobiy idrok etishga yo‘naltiradi. Masalan, o‘quvchilarni “Describe a person who helps others” yoki “Write about your mother and father’s jobs” kabi topshiriqlar orqali genderga nisbatan betaraf fikrlashga o‘rgatish mumkin.

Bunday topshiriqlar shaxsiy tajribani nutqiy ifoda bilan uyg‘unlashtiradi, o‘quvchilarda empatiya, tenglik va hamkorlik ruhini shakllantiradi. Shuningdek, o‘quvchilarning genderga oid stereotiplardan xoli fikrlashiga yordam beradi.

Sh. O. Aripov gender stereotiplari va ijtimoiy rollarning o‘zgaruvchan xususiyatga ega ekanligini qayd etib, shaxsning ijtimoiylashuvi jarayonida gender haqidagi tasavvurlar turli madaniy va ijtimoiy omillar ta’sirida shakllanishini asoslaydi; bu holat boshlang‘ich ta’lim mazmunida stereotipik emas, balki teng imkoniyatlarni aks ettiruvchi obraz va vaziyatlardan foydalanish zaruratini ko‘rsatadi [5].

Hozirgi ta’lim jarayonida kommunikativ yondashuv asosiy metodik prinsip sifatida e’tirof etiladi. Unga ko‘ra, o‘quvchi tilni real muloqot vositasi sifatida o‘rganadi va o‘z fikrini erkin ifoda etishni o‘rganadi. Shu jarayonda gender tenglikni ifodalovchi topshiriqlar o‘quvchilarda nafaqat lingvistik, balki ijtimoiy-kommunikativ kompetensiyani ham rivojlantiradi.

Masalan, “Role-play: a day in the life of a nurse and a doctor” kabi topshiriqlar o‘quvchilarni o‘zaro muloqotga undaydi va ular har ikkala jins vakillarining kasbiy faoliyatdagi o‘rnini ijobiy idrok etadilar. Shu tarzda o‘quvchi kommunikativ faoliyat jarayonida genderga sezgirlik, hamkorlik va tolerantlik kabi ijtimoiy fazilatlarni o‘zlashtiradi.

Kompetensiyaga asoslangan ta’lim esa o‘quvchini hayotiy vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish, muammolarni hal etish va ijtimoiy muhitda to‘g‘ri yo‘l tutishga o‘rgatadi. Agar topshiriqlar gender tenglik g‘oyasiga asoslangan bo‘lsa, ular o‘quvchilarning ijtimoiy kompetensiyasini — ya’ni boshqalar fikrini hurmat qilish, tenglikka asoslangan munosabatni shakllantirish — rivojlantiradi.

Darsda har ikki jins vakillarini teng obrazlarda tasvirlash — bu nafaqat adolatli yondashuv, balki o‘quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish vositasidir. Masalan, ingliz tili darslarida “My favourite person”, “People who help us”, “Dream jobs” kabi mavzularda erkak va ayol obrazlarini faol va teng asosda aks ettirish orqali o‘quvchilar o‘z atrofidagi ijtimoiy rollarni xolis baholay boshlaydilar.

Bunday topshiriqlar o‘quvchilarda quyidagi ko‘nikmalarni shakllantiradi:

- erkak va ayol faoliyatining ijtimoiy tengligini anglash;
- har qanday kasb, rol va ijtimoiy faoliyatda gender cheklovi mavjud emasligini tushunish;
- hamkorlik, o‘zaro yordam va tenglik ruhida muloqot olib borish;
- turli madaniyat va gender tajribalarini hurmat qilish.

Shuningdek, genderga sezgir topshiriqlar o‘quvchilarda ijtimoiy-axloqiy immunitetni shakllantiradi — ya’ni ular stereotiplarga qarshi mustaqil fikr yuritishni o‘rganadilar. Shu sababli dars topshiriqlarining har biri faqat grammatik yoki leksik maqsadga emas, balki tarbiyaviy va axloqiy vazifaga ham xizmat qilishi kerak.

Boshlang‘ich sinf ingliz tili darslarida gender madaniyatini shakllantirish uchun tanlanadigan topshiriqlar o‘quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantiruvchi, tenglik g‘oyasini mustahkamlovchi va stereotiplarni bartaraf etuvchi didaktik vosita sifatida qaraladi. Kommunikativ va kompetensiyaga asoslangan yondashuv orqali genderga sezgir topshiriqlar o‘quvchilarda nafaqat til ko‘nikmasi, balki ijtimoiy ong va madaniyatni shakllantirishda muhim o‘rin tutadi.

Gender tenglik g‘oyasini ifodalovchi matnlar tahlilini ko‘rib chiqamiz:

Boshlang‘ich sinf ingliz tili darsliklarida o‘quvchilar tomonidan o‘qiladigan matnlar nafaqat lingvistik kompetensiyani shakllantirishga, balki ularning ijtimoiy ongiga, madaniy qarashlariga ham kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Matn — bu shunchaki axborot manbai emas, balki o‘quvchi shaxsida axloqiy qadriyatlar, madaniyat va genderga oid qarashlarni shakllantiruvchi vositadir. Shu sababli darsliklarda keltirilgan matnlarni gender nuqtayi nazaridan tahlil qilish o‘quvchilarda gender tenglik madaniyatini rivojlantirish jarayonining muhim bosqichidir.

G. Ochilovaning tadqiqotida ta’lim va maktab muhitida gender madaniyatining shakllanishi xotin-qizlarning ta’lim va ijtimoiy faoliyatdagi imkoniyatlarini kengaytirish bilan uzviy bog‘liqligi ko‘rsatiladi, bu esa boshlang‘ich sinf darsliklari va matnlarida qiz hamda o‘g‘il bolalarni faol, mustaqil va teng huquqli subyekt sifatida tasvirlash muhimligini ko‘rsatadi [6].

O‘zbekiston va xorijiy ingliz tili darsliklari tahlili shuni ko‘rsatadiki, ayrim hollarda matnlar erkak va ayol obrazlarini an’anaviy, stereotipik shaklda tasvirlaydi. Masalan, “The father goes to work and the mother cooks at home” yoki “Tom plays football, Mary helps her mother” kabi jumlalar o‘quvchilarda gender rollariga oid biryoqlama tasavvurlarni shakllantiradi.

Biroq zamonaviy metodikaga asoslangan yangi avlod darsliklarida bu yondashuv asta-sekin o‘zgarib bormoqda. Masalan, “Sarah is a pilot”, “Ahmed helps his sister with homework”, “Both parents work and share housework” kabi misollar orqali gender tenglik g‘oyasi aks ettiriladi. Bunday matnlar o‘quvchilarda ijtimoiy rollar jins bilan emas, balki shaxsiy qobiliyat va mehnat bilan belgilanadi, degan fikrni shakllantiradi.

Matnlar o‘quvchining dunyoqarashi, tahlil qilish qobiliyati va hissiy idrokiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli gender jihatdan muvozanatli matnlar quyidagi didaktik imkoniyatlarga ega:

- o‘quvchilarda o‘zaro hurmat, bag‘rikenglik va tenglik g‘oyalarini shakllantirish;

- har ikki jins vakillarining teng imkoniyatlari haqida ijobiy fikr uyg‘otish;
- stereotip fikrlarni tahlil qilish va ularni tanqidiy baholash ko‘nikmasini rivojlantirish;
- til o‘rganish jarayonini ijtimoiy ahamiyatli mazmun bilan boyitish.

Masalan, “My Friend Amina” kabi matnda qahramon qizning ilmga, sportga yoki ixtirochilikka qiziqishi, uning faolligi va mustaqil qaror qabul qilishi tasvirlansa, o‘quvchilar ongida ayol shaxsning kuchli va faol obrazini shakllantirish mumkin. Shuningdek, “Ali helps his mother and studies well” kabi matnlar o‘g‘il bolalarga g‘amxo‘rlik va yordam ko‘rsatish fazilatlari ijobiy baholanishini anglatadi.

NATIJALAR. Olib borilgan tahlillar boshlang‘ich sinf ingliz tili darslarida gender madaniyatini shakllantirish imkoniyatlari, avvalo, darsliklarda berilgan topshiriqlar, matnlar va kommunikativ faoliyatlarning mazmuni bilan bevosita bog‘liqligini ko‘rsatdi. Tadqiqot natijasida gender tenglik g‘oyalarini til o‘rgatish jarayoniga alohida mavzu sifatida emas, balki leksik, grammatik va kommunikativ topshiriqlar mazmuniga integratsiya qilish samaraliroq pedagogik yondashuv ekanligi aniqlandi. Ayniqsa, 6–10 yoshli o‘quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan vaziyatli topshiriqlar, rolli o‘yinlar, juftlik va guruhli mashg‘ulotlar genderga oid ijtimoiy tasavvurlarni tabiiy shakllantirish uchun qulay imkoniyat yaratadi.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, erkak va ayol obrazlarining turli kasbiy, ijtimoiy va maishiy faoliyatlarda teng aks ettirilishi o‘quvchilarda an’anaviy gender stereotiplarining mustahkamlanishining oldini olishga xizmat qiladi. Xususan, ayol obrazlarini faqat uy-ro‘zg‘or faoliyati bilan, erkak obrazlarini esa faqat kasbiy yoki jismoniy faoliyat bilan bog‘lashdan voz kechib, har ikki jins vakillarini turli faoliyatlarda namoyish etish o‘quvchilarning ijtimoiy rollar haqidagi tasavvurlarini kengaytiradi.

Matnlar tahlili ham gender madaniyatini shakllantirishda muhim didaktik imkoniyat mavjudligini ko‘rsatdi. Mazmunida o‘zaro yordam, hamkorlik, mustaqillik, kasbiy faollik va oiladagi vazifalarning teng taqsimlanishi aks etgan matnlar o‘quvchilarda gender tenglik, hurmat va bag‘rikenglik kabi ijtimoiy qadriyatlarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, bunday matnlar o‘quvchilarning o‘qib tushunish, fikr bildirish, savol-javob qilish va xulosa chiqarish ko‘nikmalarini rivojlantirish bilan bir qatorda, ularning ijtimoiy-kommunikativ kompetensiyasini ham boyitadi.

Tadqiqot davomida kommunikativ va kompetensiyaga asoslangan yondashuvlarning gender madaniyatini singdirish bilan uyg‘unligi alohida ahamiyatga ega ekanligi kuzatildi. Rolli o‘yinlar, “Dream jobs”, “People who help us”, “My favourite person” kabi faoliyatlar o‘quvchilarga turli ijtimoiy rollarni jinsga bog‘lamasdan tasavvur qilish imkonini beradi. Natijada ingliz tilini o‘rganish jarayoni lingvistik maqsadlar bilan bir qatorda tarbiyaviy va ijtimoiy maqsadlarni ham qamrab oluvchi yaxlit pedagogik jarayonga aylanadi.

XULOSA. Umuman olganda, boshlang‘ich sinf ingliz tili darslarida gender madaniyatini shakllantirish til ta’limining tarbiyaviy va ijtimoiy imkoniyatlarini kengaytiruvchi muhim pedagogik yo‘nalish sifatida namoyon bo‘ladi. Darsliklardagi topshiriq, matn va faoliyatlarning mazmunini gender jihatdan muvozanatli tashkil etish orqali o‘quvchilarda tenglik, o‘zaro hurmat, hamkorlik va bag‘rikenglik kabi qadriyatlarni shakllantirish mumkin.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, gender madaniyatini singdirish o‘quvchilarga tayyor tushunchalarni majburan qabul qildirish emas, balki ularni kundalik kommunikativ vaziyatlar, matnlar, rolli o‘yinlar va ijodiy topshiriqlar orqali mustaqil anglashga yo‘naltirish asosida amalga oshirilishi lozim. Ayniqsa, erkak va ayol obrazlarining turli kasb, faoliyat va ijtimoiy rollarda teng ifodalanishi bolalarda gender stereotiplarini qayta ishlab chiqaruvchi qarashlarning oldini olishga yordam beradi.

Shunday qilib, genderga sezgir topshiriq va matnlar boshlang‘ich ta’limda nafaqat til kompetensiyasini, balki o‘quvchilarning ijtimoiy-kommunikativ va madaniy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi samarali didaktik vosita hisoblanadi. Gender madaniyatini ta’lim mazmuniga izchil integratsiya qilish esa o‘quvchilarning xilma-xillikni hurmat qilishi, teng munosabatlarni qadrlashi va stereotiplardan xoli fikrlashiga zamin yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Saydullayeva A. R. Talabalarda gender madaniyatni rivojlantirishning pedagogik tizimi // *Zamonaviy dunyoda pedagogika va psixologiya.* – 2023. – 2-jild, № 8. – B. 99–103. – DOI: 10.5281/zenodo.7968988.
2. Nazarova G. P. *Bo‘lajak tarjimonlarda genderli yondashuv orqali sotsiolingvistik kompetensiyani shakllantirishning lingvodidaktik asoslari (ingliz tili misolida): pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati.* – Buxoro, 2025. – B. 62–78.
3. Toshboyeva B. O. *Boshlang‘ich sinflarda chet (ingliz) tili o‘qitish texnologiyalarini takomillashtirish: pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati.* – Samarqand, 2020. – 51 b.
4. Bayjonov F. B. Oliy ta’lim muassasalari pedagog xodimlarida gender madaniyatni shakllantirishning xorijiy tajribasi // *Лучшие интеллектуальные исследования.* – 2025. – T. 2, № 42. – B. 198.
5. Aripov Sh. O. Shaxsda gender madaniyatni rivojlantirishda jahon tajribalarining qiyosiy tahlili // *Fergana Methodical School.* – 2025. – Vol. 3, № 2. – B. 86.
6. Ochilova G. Jadidlarda gender madaniyatga munosabatning namoyon bo‘lishi // *Maktabgacha va maktab ta’limi jurnali.* – 2024. – 1-jild, № 7.